



KDB Bank Uzbekistan

BIZNES REJA



MOLIYAVIY YIL

2025

MUNDARIJA

01

Biznes Muhit va Istiqbollar

O'zbekistonning iqtisodiy istiqbollari	3
O'zbekistonda bank tizimi	4

02

Biznes Reja va Boshqaruv Strategiyasi

Bank maqsadi va asosiy vazifalar 2025	5
Moliyaviy rivojlanish rejasi	6
Yillik budjet rejasi va tafsilotlar	10

03

Moliyaviy Reja

Umumiyl balans hisoboti	12
Umumiyl foyda va zarar hisoboti	13

Biznes Muhit va Istiqbollar

O'zbekistonning iqtisodiy istiqbollari

Asosiy ko'rsatkichlar - 2024

- 2024 yilda O'zbekiston iqtisodiyotning bir qator sohalarida barqaror o'sishni namoyish etishda davom etdi. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasini ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yili O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YalM) 6.5% ga oshgan.
- O'tgan yil davomida O'zbekistonda inflyatsiya darajasi 2023 yildagi 8.8% ga nisbatan 9.8% ni tashkil etgan.
- 2024 yilda investitsiya faoliyati sezilarli darajada ko'tarilib, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 27.6%ga o'sdi.
- O'tgan yili mamlakatning tashqi savdo faoliyati yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etishda davom etdi. 2024-yilda tashqi savdo aylanmasi \$65.8 mlrd ni tashkil etdi. Eksport hajmi \$26.9 mlrd ni, import hajmi esa \$38.9 mlrd ni tashkil etdi.

Asosiy yo'nalishlar - 2025¹

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining (MEF) va Xalqaro Moliya Institutlarining so'nggi hisobotlarida e'lon qilingan prognozga ko'ra, O'zbekiston YalM 2025 yilda 6% (MEF), 5.7% (IMF), 5.8% (WB) o'sishi kutilmoqda. Ushbu kutilmalar qo'shilgan qiymat va mehnat unumdorligini oshishi, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga qaratilgan islohotlarni davom etishi bilan chambarchas bog'liqdir.
- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining prognozlariga ko'ra 2025 yilda inflyatsiya darajasi 7% bo'lishi kutilmoqda.
- "Fuqarolar uchun budget 2025" to'g'risidagi hisobotga muvofiq, tashqi savdo uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar va eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar sababli 2025 yilda respublikada tashqi savdo aylanmasi \$71.2 mlrd ni tashkil etishi kutilmoqda. Xususan, eksport va import hajmi mos ravishda \$30.4 mlrd va \$40.8 mlrd ni, savdo balansi taqchilligi esa \$10.4 mlrd ni tashkil etishi kutilmoqda.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Birlik	2022	2023	2024	2025 (R)
YalM real o'sishi	%	5.7	6.0	6.5	5.7-6.0
MEF		-	-	-	6.0
IMF		-	-	-	5.7
WB		-	-	-	5.8
Nominal YalM	\$ mlrd	80.4	90.9	115	123
Inflatsiya darajasi	%	12.3	8.8	9.8	7.0
Tashqi savdo aylanmasi	\$ mlrd	50	62.5	65.8	71.2
Tovarlar eksporti	\$ mlrd	19.3	24.4	26.9	30.4
Tovarlar importi	\$ mlrd	30.7	38.1	38.9	40.8
Savdo balansi	\$ mlrd	-11.4	-13.7	-12.0	-10.4

Ayirboshlash kurslari

So'm : AQSH dolları (o'rtacha)	11,225.46	12,338.77	12,920.48	
So'm : AQSH dolları	11,051.22	11,737.16	12,652.69	13,250.00

¹ Manba: api.mf.uz; stat.uz; imf.org; adb.org; worldbank.org

BIZNES MUHIT VA ISTIQBOLLAR

O'zbekiston bank tizimi

Asosiy ko'rsatkichlar 2024

- Tijorat banklarining moliyaviy natijalarining 2024 yil 31-dekabr holatiga ko'ra, bank tizimining jami aktivlari AQSH dollarini ekvivalentida 12.7% ga o'sib, \$59.5 mlrd ni tashkil etdi. Shuningdek, tijorat banklarining umumiy kapitali 2024 yil yakuniga ko'ra 13.1% ga o'sib, \$8.9 mlrd ni tashkil etdi.
- 2024 yil so'ngiga kelib, O'zbekistonda tijorat banklari soni 36 tani tashkil etdi, shundan 9 tasi davlat ulushi mavjud bo'lgan banklardir. Mamlakat bank tizimida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning o'rni muhimligicha qolmoqda. Xususan, butun bank tizimining jami aktivlarning 65.4% va jami kapitalining 61.1% ni ushbu 9 ta bankka tegishlidir.
- 2024 yil 31-dekabr holatiga ko'ra, tijorat banklarining jami aktivlari asosan kreditlar (66.9%), naqd pul va boshqa banklardagi depozitlar (16.2%), qimmatli qog'ozlar (7.8%) va boshqa aktivlardan (9.1%) tashkil topgan. Shu bilan birga, tijorat banklarining jami majburiyatları va kapitali, mijozlar depozitlari (40.1%), moliya institutlaridan olingan kreditlar (30.5%), boshqa banklardan jalb qilingan depozitlar (5.6%), obligatsiyalar (3.8%), boshqa majburiyatlar (5.1%), va kapitaldan (14.9%) tashkil topgan.

Asosiy yo'nalishlar 2025²

- Hukumat bank tizimida xususiy banklarning ulushini oshirish maqsadida davlat banklarini xususiyashtirish jarayonini davom ettirmoqda. Bazi banklarni xususiyashtirish muddati qayta ko'rib chiqildi va yangi muddat 2025 yil oxiriga belgilandi.
- Ammo, ushbu banklarning avvaldan korporativ sektor va davlat korxonalariga kredit berishga urg'u berib kelganligi va shu kunlarda o'z e'tiborlarini diversifikatsiyalangan model (kichik va o'rta biznesga e'tibor qaratish hamda chakana savdoni rivojlantirish) qurishga qaratganligi sababli, mutaxassislarning fikriga ko'ra xususiyashtirish jarayoni kutilganidan ko'proq vaqt talab qilishi aytilmoqda.
- S&P tahliliga ko'ra, 2025 yilda O'zbekistonning bank sektori ikki raqamli past ko'rsatkichda kreditlash o'sishini saqlab qolishi kutilmoqda. Bu o'sish asosan chakana kreditlash segmentidagi yuqori talab bilan izohlanadi. Muhibi, bu kengayish aktivlar sifati barqarorligiga putur yetkazmasdan amalga oshishi prognoz qilinmoqda.

O'zbekistonning eng yirik 20 ta Banki³

2024 yil moliyaviy natijalariga ko'ra

(Birlik: MLN \$, %)

#	Banklar	Aktivlar	Kapital	Sof foyda	ROA	ROE
1	O'zmilliyybank	10,455	1,460	136	1.3%	9.4%
2	O'zsanoatqurilishbank	6,780	776	103	1.6%	13.9%
3	Agro Bank	6,146	962	5	0.1%	0.6%
4	Asaka Bank	4,496	620	3	0.1%	0.6%
5	Ipoteka Bank	4,030	568	-19	-0.5%	-3.2%
6	Kapital Bank	3,666	404	91	2.6%	24.5%
7	Xalq Bank	3,598	619	21	0.6%	3.9%
8	Biznesni Rivojlantirish Bank	2,487	332	-176	-7.5%	-59.7%
9	Hamkor Bank	2,222	399	113	5.7%	32.0%
10	Mikrokredit Bank	1,822	275	-135	-8.0%	-45.5%
11	Aloqa Bank	1,800	239	15	1.0%	6.6%
12	Ipak Yo'li Bank	1,792	278	72	4.6%	28.7%
13	Turon Bank	1,361	149	2	0.1%	1.2%
14	Orient Finance Bank	1,306	238	71	6.0%	33.9%
15	Invest Finance Bank	934	109	19	2.2%	18.6%
16	Trust Bank	841	226	64	7.9%	31.3%
17	KDB Bank O'zbekiston	784	142	42	5.6%	33.5%
18	Anor Bank	782	79	15	2.6%	23.7%
19	TBC Bank	754	194	27	4.8%	18.4%
20	Davr Bank	725	108	31	5.0%	32.4%

Izoh: ROA va ROE mos ravishda 2024-yil boshidagi va oxiridagi Umumiy Aktivlar va Umumiy Kapitalning o'rta qiyatiga Sof Foydani bo'lish orqali hisoblangan.

² Manba: lex.uz

³ Manba: cbu.uz; Ahbor Rating (2025) Analytical review of the banking sector; S&P Global Ratings (2025) Central Asia and Caucasus Banking Outlook

Biznes Reja & Boshqaruv Strategiyasi

Bank Maqsadi & Asosiy Vazifalar 2025

BANK MAQSADI

MDH Hududida Yetakchi Moliya Instituti

ASOSIY VAZIFALAR 2025

Biznesni takomillashtirish



Yangi mahsulotlarni yaratish

- Islom moliysi mahsulotlari yaratish
- Hosilaviy moliya vositasini amalga oshirish



Karta biznesini takomillashtirish

- Xizmat sifati, shuningdek karta biznesining xavfsizligi va barcharorligini oshirish maqsadida VISA va mahalliy karta tizimlari uchun texnik infratuzilmani yangilash.



Xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash

- Bankning korporativ mijozlari va ularning xodimlariga ko'rsatiladigan standard xizmatlar sifatini yaxshilash va tezligini oshirish.

Tavakkalchilikni boshqarish va amaliyotlar sohasidagi takomillashtirishlar



Doimiy nazorat dasturini joriy qilish

- Bank faoliyatining barcha jihatlarini operatsion xatarlar nuqtayi nazaridan doimiy nazorat qilishni ta'minlaydigan tizimli monitoring mexanizmini joriyu qilish



Keng qamrovli tavakkalchiliklarni boshqarish vositasini tatbiq qilish

- Mahsulot turlarining uzluksiz kengayib borishi, tartibga soluvchi talablarining rivojlanib borishi, kiber tahdidlar hamda hisob-kitob hajmi murakkabligini inobatga olgan holda, keng tan olingan fin-tex kompaniyasining zamonaviy va keng qamrovli biznes yechimini joriy etish



AT infrastrukturasiini takomillashtirish

- AT bilan bog'liq barcha xizmatlar/mahsulotlar muammosiz ishlashini ta'minlash uchun bankning asosiy ma'lumotlar markazini modernizatsiya qilish.

Biznes Reja & Boshqaruv Strategiyasi

Moliyaviy rivojlanish rejasi

Jahon moliya bozoridagi joriy tendentsiyalar hamda O'zbekistondagi moliyaviy muhitni hisobga olgan holda, 2024 moliya yili uchun moliyaviy hisobotlar quyidagicha prognoz qilindi.

Rejalashtirilgan moliyaviy hisobotlarning asosiy bandlari

Birlik: \$ ming, %

Ko'rsatkichlar	2025		2024		
	Reja (A)	O'sish (A-C)/C	Reja (B)	Fakt (C)	Ijro (C/B)
MOLIYAVIY HOLAT					
Jami Aktivlar	854,241	8.9%	749,559	784,367	104.6%
Naqd pul, banklararo depozitlar va pul bozioriga mablag'larini joylashtirish	488,961	3.6%	459,849	471,956	102.6%
Kreditlar	287,460	10.4%	235,000	260,471	110.8%
Qimmatli qog'ozlar	70,000	48.9%	47,000	47,021	99.9%
Boshqa aktivlar	7,820	59.0%	7,710	4,919	64.3%
Jami Majburiyatlar	690,300	7.5%	627,450	642,108	102.3%
Mijozlar depozitlari	500,000	21.7%	502,000	410,700	81.8%
Banklararo qarzlar	185,000	-16.0%	120,000	220,000	183.3%
Boshqa majburiyatlar	5,300	-53.5%	5,450	11,408	209.3%
Jami Kapital	163,941	15.2%	122,109	142,259	116.5%
DAROMAD HISOBOTI					
Sof foizli daromadlar	47,157	-6.3%	37,662	50,345	133.7%
Sof foizsiz daromadlar	14,970	21.6%	12,310	12,306	100.0%
Ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxira (Yaratilishi - / Qaytarilishi +)	(753)		(715)	91	
Sof Operatsion Daromad	61,374	-2.2%	49,257	62,742	127.4%
Operatsion xarajatlar	(15,142)	24.3%	(14,411)	(12,177)	84.5%
Standart aktivlar bo'yicha zaxira	(1,232)		(823)	(725)	
Daromad solig'idan oldingi sof foyda	45,000	-9.7%	34,023	49,840	146.5%
Sof foyda	37,350	-10.3%	27,218	41,641	153.0%
Ayrboshlash kursi: UZS/USD	14,327.50	10.9%	13,640.00	12,920.48	
O'rtacha ayrboshlash kursi: UZS/USD	13,676.25	8.1%	13,020.00	12,652.69	



Izoh: Biznes reja rasmiy buxgalteriya standartlari asosida tayyorlandi. O'zbek so'mi O'zbekiston Respublikasining amalda qo'llanilayotgan pul birligi bo'lganligi sababli, yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlar avval so'mda hisoblanib so'ngra prognoz qilingan valyuta kursi (2025 yil 31 dekabr holatiga \$1 = 14,327.50 so'm va o'rtacha ayrboshlash kursi \$1=13,675.25 so'm) ni qo'llagan holda AQSH dollarida hisoblab chiqildi.

Rejalarshirilgan moliyaviy hisobotlarning asosiy bandlariga izohlar

Biznes rejaga muvofiq, jami aktivlar 2025 yil so'ngiga kelib \$854.2 mln ni tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu ko'sratkichlarni prognoz qilishda global geosiyosiy vaziyatdagi noaniqliklar sababli konservativ yondashuv qo'llanigan. Boshqa tomondan, jami majburiyatlar 2025 yil so'ngiga kelib \$690.3 mln ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Jami aktivlar va majburiyatlar tarkibida quyidagi asosiy o'zgarishlar prognoz qilinmoqda:

- Operatsion aktivlar (kreditlar va qimmatli qog'ozlari) ning \$40.1 mln ga ortishi;
- Mijozlar depozitlarining \$89.3 mln ga oshishi;
- Banklararo qarzlar \$35 mln ga kamayishi;
- Jami kapital \$21.7 million ga o'sishi prognoz qilinmoqda.




Operatsion Aktivlar

Bankning operatsion aktivlari kreditlar va moliyaviy institutlar hamda davlat organlari tomonidan milliy va xorijiy valyutalarda chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar (bond, yevroobond, g'aznachilik vekseli va boshqalar) dan iborat.

2025 yilda Bank operatsion aktivlarni \$40.1 mln ga (yoki 13.0% ga) quyidagicha oshirishni rejalarshirg'an.

- Yuridik va jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarni \$23.4 mln (11.4%) ga oshirish;
- Mahalliy banklarga ajratiladigan kreditlar ("on-lending" va savdoni moliyalashtirish) miqdorini \$3.6 mln (6.6%) ga oshirish;
- Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar hajmini \$13.1 (27.%) mln ga ko'paytirish.

Operatsion aktivlar (2024 yil fakt vs. 2025 yil reja)



Yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarni oshishi (Δ U\$ 23.4 mln)

2025 yilda Bank o'z sohasida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan korporativ mijozlarni jalb qilishga qaratilgan faoliyatini jadallashtiradi. Bank odatdagidek loyihalarni moliyalashtirishdan avval mijozlarning moliyaviy faoliyati hamda biznes rejasini ko'rib chiqishda konservativ yondashuvni qo'llashda davom etadi.

Bank asosan tog'-kon sanoati, neft va gaz, ichimliklar va oziq-ovqat, kabel mahsulotlari, qurilish materiallari, farmatsevtika, tekstil, plastmassa buyumlari hamda

qog'oz va gigiena mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi hamda moliyaviy jihatdan ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan eng yirik kompaniyalarga kreditlar ajratishda davom etadi. Bundan tashqari, Bank o'z oldiga xorijiy va mahalliy banklar bilan hamkorlikda sindikatlangan kreditlash amaliyotini jadallashtirishni rejalashtirgan.

2025 yil oxiriga kelib, yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar portfeli 2024 yil so'ngidagi \$206.1 mln ga nisbatan \$229.5 mln ni tashkil etishi kutilmoqda.

"On-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlarini o'sishi (Δ U\$ 3.6 mln)

2020-2021 yillarda bank O'zbekistonda kichik biznes korxonalarini va savdoni moliyalashtirish faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ilk bor mahalliy banklarga "on-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlarini joriy qildi. So'ngi to'rt yil davomida, bir qancha mahalliy banklarga "on-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlari ajratildi.

2024 yil so'ngida "on-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlarining qiymati jami U\$ 54.4 mln ga yetdi. 2025 yilda Bank "on-lending" va savdoni moliyalashtirish kreditlarini \$58.0 mln ga yetkazishni rejalashtirgan.

Qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar (Δ U\$ 23.1 mln)


2024 yilda Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligi va AQSH G'aznachiligi tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib oldi hamda REPO bitimlarini amalga oshirdi. 2024 yil 31-dekabr holatiga, qimmatli qog'ozlarining umumiy summasi \$46.9 mln ga teng bo'ldi.

2025 yilda Bank Operatsion aktivlarni diversifikatsiya qilish maqsadida qimmatli qog'ozlariga investitsiya faoliyatini jadallashtirish niyatida. 2025 yil oxirida Bankning qimmatli qog'ozlariga investitsiyalari \$60 mln ni tashkil etishi kutilmoqda.

Daromadlilik

Daromadlilikning asosiy ko'rsatkichlari (2024 fakt vs. 2025 reja)

(Birlik: MLN \$, %)



Sof Foizli Daromadlar

2025 yilda foizli daromadlar va xarajatlardagi quyidagi asosiy o'zgarishlar sababli Bankning sof foizli daromadlari 2024 yilga nisbatan U\$ 3,189 mingga kamayishi kutilmoqda:

- Operatsion aktivlarning ortishi munosabati bilan (Δ U\$ 7,075 ming) kreditlar va qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlarning o'sishi;

- Asosan jahon pul bozorlarida foiz stavkalari va mijozlarning o'rtacha depozitlarining kamayishi hisobiga bo'sh pul mablag'larini joylashtirishdan olinadigan foizli daromadlarning kamayishi (∇ U\$ 4,537 ming);
- Mijozlarning depozitlari va qo'shimcha banklararo qarzlarni jalb qilish bo'yicha foizli xarajatlarning o'sishi (Δ \$5,728 ming).

Sof Foizsiz Daromadlar

Tijorat banklari o'rtaisdagi yuqori raqobat hamda pandemiya bilan bog'liq vaziyat sababli Bank 2017 - 2020 yillarda sof foizsiz daromadlarning pasayish tendentsiyasini boshdan kechirdi. Xususan, 2020 yilda bankning sof foizsiz daromadi \$4,462 ming (tarixiy minimum) ni tashkil etdi.

Biroq, Bankning komissiya biznesi bilan bog'liq vaziyat 2021 yildan boshlab ijobiy tomonga o'zgara boshladi va Bankning foizsiz daromadlari 2021-2023 yillarda o'sib,

2021 yilda \$6,728 ming ni, 2022 yilda \$9,879 ming ni, 2023 yilda U\$ 12,664 ming ni va 2024 yilda U\$ 12,306 ni tashkil etdi.

Beqaror geosiyosi vaziyatni hisobga olib, Bank konservativ tarzda 2025 yilda Sof foizsiz daromadlarini 2024 yildagiga nisbatan sezilarli darajada (Δ U\$ 2,664 ming) oshirib U\$ 14,970 mingga yetkazmoqchi.

Operatsion xarajatlar va soliqdan oldingi sof daromad

2025 yilda bankning operatsion xarajatlari \$2,965 ming ga o'sishi va \$15,142 ming ni tashkil etishi kutilmoqda. Operatsion xarajatlarning oshishi hamda foiz stavkalarining (Federal Rezervning asosiy stavkasi) pasaytirilishi kutilayotganiga qaramay, Bank 2025-yilda soliqqa qadar sof daromadni \$45 000 minggacha

oshirishni optimistik tarzda rejalashtirmoqda. Bu ko'rsatkich 2024-yilda \$49 840 ming tashkil etgan edi.

Biznes Reja & Boshqaruv Strategiyasi

Yillik Budjet Rejasi & Tafsilotlar

Operatsion xarajatlar

2025 yida bankning operatsion xarajatlari 2024 yildagi ko'rsatkichlarga qaraganda AQSH dollari ekvivalentida \$2,965 ming (24.4%) ga o'sishi prognozlashtirilmoqda.

Operatsion xarajatlar (shuningdek, kapital xarajatlar) 2025-yilda sezilarli darajada oshishi kutilmoqda, asosan quyidagilar hisobiga:

- yangi AT bilan bog'liq uskunalar, dasturiy ta'minot, litsenziyalar va xizmatlar (audit, konsalting va boshqalar) xarid qilinishi;
- bir qator mavjud xizmatlar narxining sezilarli oshishi (kommunal to'lovlar, qo'riqlash xizmatlari xarajatlari, yoqilg'i, aloqa xarajatlari, SWIFT to'lovleri, audit va konsalting xizmatlari haqlari va boshqalar).

(Birlik: So'm mln, \$ Ming)

Ko'rsatkichlar	Reja 2025		Fakt 2024		Tafovut (\$)		Izohlar
			So'm	\$	So'm	\$	
	So'm	\$	Miqdor	%			
Ish haqi va xodimlarga xarajatlari	137,208	10,033	110,621	8,743	1,290	14.8%	Mahalliy va chet el xodimlar uchun ish haqi va boshqa xarajatlari
Ijara va xizmat ko'rsatish xarajatlari	19,099	1,397	10,527	832	565	67.9%	Ijara to'ovi, xavfsizlik, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunal to'lovlar
Safar va transport xarajatlari	1,805	132	945	75	57	76.0%	Xizmat safari, avto yoqilg'i xarajatlari
Ma'muriy xarajatlari	6,531	478	4,082	323	155	48.0%	Aloqa, kanstovarlar, davriy nashrlar uchun xarajatlari
Vakillik xarajatlari va a'zolik badallari	10,509	768	8,681	686	82	12.0%	Depozitlarni kafolatlash fondiga a'zolik to'ovi, vakillik, xayriya va tadbirdilarga xarajatlari
Amortizatsiya	22,484	1,644	14,329	1,132	512	45.2%	Moddiy va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya xarajatlari
Boshqa xarajatlari	6,713	491	4,730	374	117	31.3%	Sug'urta, audit, yuridik maslahatlar va boshqa konsultatsiyalar, mustaqil
Kutilmagan xarajatlari uchun zaxira	2,735	200	157	12	188	1566.7%	Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lovlar, soliqlar (<i>daromad solig'i bundan mustasno</i>)
Jami	207,084	15,142	154,072	12,177	2,965	24.3%	Kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira
O'rta ayirb. Kursi		13,676.25		12,652.69			

Kapital Xarajatlar

(Birlik: MING \$)

#	Asosiy xarajatlar	Reja 2025
	AT sohasini takomillashtirish	6,950
1	- AT infratuzilmasini takomillashtirish	5,550
	- AT rivojlantirish (shu jumladan, Raqamli Bank yechimlari)	1,400
2	Bank kartalari biznesi	2,200
	Ma'muriy xarajatlar (transport vositalari, mebellar va jihozlar)	350
3	- Bosh ofis	300
	- Oybek filiali	50
	JAMI:	9,500

AT sohasini takomillashtirish

2025 yilda Bank AT infratuzilmasini yaxshilash hamda Biznes amaliyotlarini yanada raqamlashtirish uchun jami \$6,950 ming sarflamoqchi. Xususan, AT uskunalar xarid qilish uchun \$ 4,400 ming, litsenziyalar va dasturiy ta'minotlar xarid qilish uchun \$ 1,150 ming hamda AT ilovalar (jumladan, raqamli bank yechimlari) bo'lgan Internet-Banking tizimi, Boshqaruv axborot tizimi (MIS BI), Intranet tizimi, Mobil banking tizimi, Unibanks, Komplayensni boshqarish tizimi, Tavakkalchilikni boshqarish tizimi va boshqalarni yangilash va rivojlantirish uchun \$ 1,400 ming ajratilgan.

Bank kartalari biznesi

2025 yilda AJ "KDB Bank O'zbekiston" bank kartalari biznesini yanada rivojlantirish uchun \$ 2,200 ming, xususan, bankomatlar va savdo terminallarni xarid qilish uchun \$ 200 ming, VISA karta tizimini texnik infratuzilmasi (uskunalar, dasturiy ta'minot va litsenziyalar, yangi xizmatlar va xususiyatlar) ni yaxshilash uchun \$ 1,800 ming va boshqa maqsadlar uchun \$ 200 ming sarflashni rejalashtirgan.

Ma'muriy xarajatlar (transport vositalari, mebellar va jihozlar)

2025 yilda bank yangi transport vositalari, mebel va jihozlar uchun \$ 350 ming, shu jumladan, bosh ofis uchun \$ 300 ming, Oybek filiali uchun \$ 50 ming miqdoridagi mablag' ajratishni rejalashtirgan.